



## QIPCHOQ SHEVASIDA YOZILGAN MATNLARNI FONETIK TAHLIL QILISH

**Abdujalilova Baxtligul**

*Termiz Davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu tezida qipchoq shevasida yozilgan matnlarni fonetik jihatdan tahlil qilish va izohlash keltirib o'tilgan. Shu bilan birga, fonetik o'zgarishlarni ham ba'zilarini misollar yordamida izohlandi.*

**Kalit so'zlar:** *Fonetik hodisalar, singarmonizm, umlaut, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, sandhi hodisalari, qipchoq shevasi.*

Qipchoq shevasida yozilgan matnlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak bunda olimlarimizdan ko'plab tadqiqotlar va qarashlari ko'rsatib o'tilgan. Avval fonetik jarayonlarga to'xtalib o'tmoqchiman. Qipchoq shevasida eng ko'p qo'llaniladigan fonetik hodisalardan biri bu singarmonizm.

Singarmonizm unlilar uyg'unligi. Taniqli tilshunos olim I.A. Bogorodistskiy fikriga ko'ra « Singarmonizm unlilar uyg'unligi, shuningdek, qisman undoshlarga ham taalluqlidir»-deb keltiradilar.<sup>1</sup>

Singarmonizm qonuni ikki sifat ko'rinishiga ega:

1. Lingvistik yoki palatal (tanglay) singarmonizmi. Lingval singarmonizm qonuniga ko'ra unli fonemalarni a, o, i, i:, u qatnashsa, keyingi bo'g'inda ham xuddi shu unlilar keladi. Chuqur til orqa q, g', x undosh tovushlari keladi. Chunki q, g', x undosh tovushlari tilning eng chuqur qismidan hosil

bo'lganligi uchun ham a, o, i, i:, u tovushlarini o'ziga moslashtirgan holda keladi.

2) Labial singarmonizm. Bu qonun aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg'iz tilining „temir qonun“i hisoblanadi, o'zbek tili va uning shevalarida esa qisman amal qiladi.

Bu qonunga ko'ra, so'zning dastlabki bo'g'inida old qator lablangan unlilar ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarida ham old qator lablangan unlilar qatnashadi, aksincha, so'zning dastlabki bo'g'inida lablangan qator unli ishtirok etsa, keyingi bo'g'inlarida ham orqa qator lablangan unlilar qatnashadi.<sup>1</sup>

Biz singarmonizm hodisasi va umlaut hodisasidan qanday farqlashimiz mumkin degan savolga quyidagicha javob beramiz. Birinchi o'rinda biz umlaut tushunchasini izohlashimiz kerak.

Umlaut - unlilarning repressiv assimilyatsiyasidir.

Ana endi farqlaydigan bo'lsak, umlautda o'ngdan chapga qarab, singarmonizm da esa chapdan o'nga qarab unli tovushlar bir-biri bilan birikib, uyg'unlashadi.

Bu hodisa qipchoq shevasida juda kam uchraydi. Ko'proq o'zbek adabiy tilida, Namangan shevalarida qayd qilinadi.

Assimilyatsiya - unli va undoshlarning bir-biriga singishi yoki o'ziga o'xshatib olishi.



Dissimilyatsiya - undosh tovushlarning bir pozitsiyada farqlanib qolishi, noo‘xshashlik.

Har bir keltirib o‘timayotgan fonetik hodisalarni izofa shaklida berib o‘tildi. Endi esa berilgan matnlardan fonetik hodisalarni topamiz.

Kujâvlärgä belbâv tigäridik, belbâvdijäm ârçasıva üjirip iqqâvat qip, ârçasıjam betijäm birdäj böviçittä, belbâv tigäridik, kättä-kättä qip, kujâv belbâv.

Sandhi. Tikar edik - tigäridik, qilmas edik tag‘in - qimäsriqdäxin so‘zlarini talaffuz qilinayotganda o‘z holicha emas, qulayg‘ashtirilgan holatda talaffuz qilinishi ham mumkin.

Mäjiz qivannän kejin jäxşilärini jäxşiläb-jäxşiläb bâşqa tâmänlärva jäşikläb sätib jibarämiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dialektalogiyadagi matnlarni fonetik doirada tahlil qilish bu sohada ishlamaydiganlar ham, bu sohani hali yaxshi bilmaydiganlar ham o‘ziga kerakli bo‘lgan hollarda qo‘llana olishi uchun qulaylik yaratiladi.

Dialektalogiyadagi fonetik hodisalar, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi fonetik hodisalardan tubdan farq qiladi. Bunga asosiy sabab so‘zlashuvdagi, talaffuzdagi farqlardir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurboyev S. «O‘zbek dialektalogiyasi» T. 2013. 38, 40 bet
2. Saidmuro Raximov «O‘zbek tili Surxondaryo shevalari» T. Fan nashriyoti 1985.
3. Xolova M. «O‘zbek shevalari tadqiqoti». 2022 TerDu nashriyoti.
4. Oefen.uz